

**TRANSPORT TARMOQLARI – HUDUD IQTISODIY
VA STRATEGIK TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI SIFATIDA
(BUXORO VILOYATI MISOLIDA)**

Nuriddinov Rajabmirzo Maxsud o‘g‘li
BuxDU Geografiya ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada transport tizimining respublikamiz xususan, Buxoro viloyati iqtisodiyoti uchun ahamiyati, uning rivojlanishi va istiqbollari, shuningdek, iqtisodiy-ijtimoiy xususiyatlarini va salohiyati aks etgan.

Kalit so‘zlar: transport, transport to‘ri, transport geografiysi, magistral, quruqlik transporti, suv transporti, havo transporti, elektron transport, yashil koridor, taraqqiyot strategiyasi.

**TRANSPORT NETWORKS AS AN IMPORTANT FACTOR
OF ECONOMIC AND STRATEGIC DEVELOPMENT OF THE REGION
(EXAMPLE OF BUKHARA REGION)**

Nuriddinov Rajabmirzo Makhsud ugли
4th year Student, Geography at Bukhara State University

ABSTRACT

This article reflects the importance, development and prospects of the transport system for the economy of our republic, especially the Bukhara region, as well as its economic and social characteristics and potential.

Keywords: transport, transport network, transport geography, highway, land transport, water transport, air transport, electric transport, green corridor, development strategy.

Har qanday mamlakat iqtisodiyotining salohiyati, avvalo uning transport to‘rining rivojlanganligi bilan belgilanadi. Shu sababdan ham iqtisodiy geografik tadqiqotlarda transport va tashqi iqtisodiy aloqalarni o‘rganish alohida o‘rin tutadi. O‘z navbatida, transport shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi, urbanizastiya jarayoni, sanoat rayonlari hamda hududiy ishlab chiqarish majmularining shakllanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Transport (lotincha transporto – tashiyman degan ma'noni anglatadi) moddiy ishlab chiqarishning yuk va yo'lovchilar tashishni amalga oshiradigan eng muhim tarmoqlaridan biri, sanoat va qishloq xo'jaligidan keyingi uchinchi asosiy manbai bo'lib hisoblanadi.

Turli xil transport vositalari sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni iste'molchilarga o'z vaqtida, isrof qilmasdan yetkazishda faol ishtirok etadi. Aholini bir manzildan ikkinchi bir manzilga yetkazishda ham transportning ahamiyati kattadir.

Transportning taraqqiyoti ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojining umumiy darajasiga va ilmiy-texnik taraqqiyotga bog'liq. Ilmiy-texnika inqilobi transport quvvati va tezligi o'sib ketishiga, katta miqdordagi yuklarni hamda juda ko'p sonli yo'lovchilar tashishga imkon yaratdi.

Transportdagagi ilmiy-texnika inqilobi transport vositalari quvvati, tezligi, yuk va yo'lovchi tashish imkoniyatlarining o'sishida va uning yangi-yangi turlarining yaratilishida namoyon bo'lmoqda.

Transportning takomillashish darajasi qancha yuqori bo'lsa, ayrim mamlakatlar va jahon xo'jaligi miqyosida mehnatning hududiy taqsimotida shuncha samarali ta'sir ko'rsatadi.

Transport ishlab chiqarishining boshqa tarmoqlardan farq qiladigan xususiyatlari quyidagilardan iborat:

A) tabiiy sharoit va tabiiy resurslardan yo'l va yo'l qurilishi uchun asos hamda xom ashyo sifatida foydalananadi;

B) transport ishlab chiqarishi asosan cho'ziqsimon (chiziqli) joylanishga ega;

D) moddiy ishlab chiqarish uchun asosiy manbalardan biri hisoblanadi;

E) transport ishlab chiqarishi tarmoqlarga emas, balki turlarga bo'linadi;

F) transport ishlab chiqarishining xom ashysosi yo'q, asosiy vazifasi yuk va yo'lovchi tashishdir.

Transport geografiyasining keng tarqalgan umumiy tushunchalari quyidagilardan iborat: magistral, yuk o'tkazish sur'ati, yuk ko'tarish quvvati, yuk oboroti, yo'lovchi oqimi sur'ati va h.k.

Transportning asosiy vazifasi keng aholi ommasi hamda milliy iqtisodiyot korxona va tashkilotlarining transport xizmatiga bo'lgan barcha talab-ehtiyojlarini to'la va yuqori sifat bilan qondirishdan iborat.


Transport ishlab chiqarish tizimida muhim o'rinn tutishi bilan birga u har qanday hudud xo'jaligi majmuasining zaruriy bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi. Uning rivoji tufayli hududlarni iqtisodiy jihatdan ixtisoslashtirish mumkin. Ya'ni bu tarmoqning rivojlanish darajasi mintqa iqtisodiyotiga, unda ishlab chiqarish kuchlarining joylashish va o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Transport infrastrukturasi va yo'1 tarmoqlarining samarali rivojlanishi hududlarning har tomonlama rivojlantirishda, mehnat resurslaridan unumli foydalanish imkonini yaratadi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi bo'lib hisoblangan transportning, ishlab chiqarish xarajatlari va tovar narxiga ta'siri yuqoridir. Tarmoqning rivojlanishi tabiiy resurslarni o'zlashtirish, sanoat va agrar soha integratsiyasi chuqurlashishi hamda milliy xo'jalikning jahon bozoriga qo'shilishining shart-sharoitlarini yaxshilaydi. Transportning texnikaviy, savdo-sotiq va madaniy aloqalarda ham ahamiyati katta.

O'zbekiston siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash va uning jahon uyushmasiga kirib borishi uchun mukammal transport tizimiga ega bo'lish kerak.

Mamlakat transport tarmog'i quruqlik, havo, quvur, qisman suv (daryo), elektron (elektromobil, tramvay, trolleybus, metropoliten va h.k.) tranportlardan iborat bo'lsa, Buxoro viloyati transporti asosan quruqlik (avtomobil, temir yo'1) quvur va havo yo'llaridan tashkil topgan. Transportning barcha turlari yordamida respublikada har yili xalq xo'jaligi uchun zarur bo'ladigan turli-tuman yuklar va yo'lovchilar tashiladi. Jumladan, viloyatimizda barcha transport turlari vositasida yiliga 65,3 mln. tonnadan oshiq yuk va 290,4 mln. yo'lovchi tashilmoqda.

**Transport turlari bo'yicha yuk tashish, yuk aylanmasi,
yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi**
(2022 yil yanvar-dekabr)






Diagramma Buxoro viloyati statistik axborotnomasi asosida tuzildi

Yuqoridaqdi diagramma asosida shahar va tumanlar bo'yicha yuk aylanmasining yuqori ulushida Qorovulbozor (22,4 foiz) tumanining yetakchiligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga G'ijduvon (13,0 foiz) tumani, Buxoro shahri (14,1 foiz) va Buxoro (9,2 foiz) tumanida yuk tashish hajmi birmuncha yuqoriligi kuzatilgan.

Shahar va tumanlar bo'yicha yo'lovchi aylanmasining yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Buxoro shahri (22,7 foiz) egalladi. Shu bilan bir qatorda G'ijduvon (14,0 foiz), Buxoro (11,5 foiz), Kogon (7,4 foiz) va Jondor (7,1 foiz) tumanlarida ham yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.

Transport sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlari keyingi yillarda birmuncha turg'un xarakterda bo'lib, bu sohadagi investitsion faollikning pasayishi, tarkibiy siljishlarning sekinlashishi, xususiy lashtirish va tadbirkorlikning rivojlanish darajasi hamda umuman iqtisodiy o'sish sur'atlari va xorijiy investitsiyalarning jalb etilish darajasini pastligi bilan izohlanadi.

Muhtaram prezidentimizning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 3-ustuvor yo'nalishi (**Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash**) da qayd etib o'tilgan barcha transport turlarini uzviy bog'lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o'rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish. Transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo'l infratuzilmasini

elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo'llari tarmog'ini jadal rivojlantirish. Transport sohasida tashqi savdo uchun "yashil koridorlar" hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish kabi maqsadlarni ilgari surishlari, shuningdek, 2022-yil 28-sentabrdagi transport sohasini rivojlantirish bo'yicha yig'ilishda "Bu soha – iqtisodiyotning qon-tomiri. Transport va logistikani yangi bosqichga olib chiqmasak, iqtisodiyotning barqaror rivojini ta'minlay olmaymiz" deya ta'kidlashlari transportning respublikamiz istiqboli uchun qanchalik ahamiyat kasb etishining yana bir isbotidir.

Viloyatning asosiy transport yo'llari uning voha qismidan o'tgan. Bu yerda Buxoro - Turkmanobod (avvalgi Chorjo'y), Buxoro - Qarshi temir yo'llari o'tgan, Buxoro shahri respublika poytaxti-Toshkent shahri o'rtaida tezyurar elektropoezd (Sharq 2006-y, Afrosiyob 2016-y.) qatnovi yo'lga qo'yilgan.

Buxoroda mavjud bo'lgan transport turlari orasida yetakchi va muhim o'rinni temir yo'llar egallaydi. Mamlakat va mintaqalarning tashqi iqtisodiy aloqalarida, ayniqsa eksport va import munosabatlarda ushbu transport turining ahamiyati beqiyosdir. Temir yo'l transportining boshqa transport turlariga nisbatan yana bir afzalligi shundan iboratki, bu transport atrof-muhitga kam zarar yetkazadi, uning yuk va yo'lovchilar tashish qobiliyati juda yuqori bo'lib, ob-havo injiqqliklari bilan bog'liq emas va muntazam ravishda harakatda bo'ladi. Bu bilan u avtomobil va ayniqsa havo transportidan katta farq qiladi.

O'zbekistonda temir yo'llarni qurish o'zining ma'lum tarixiga ega. Mamlakat hududida birinchi temir yo'l izlari 1888-yilda Farob stansiyasidan Samarqandgacha qurilgan bo'lib u Kaspiyorti (Turkmanboshi-Chorjo'y) temir yo'lining davomi edi. Aynan shu yo'l Buxoro viloyati hududidan o'tganligi bois, Buxoro O'zbekistonda birinchi temir yo'llar kirib kelgan viloyat hisoblanadi. Hozirda viloyat hududida foydalanilayotgan temir yo'llarning uzunligi 270,6 km.

Buxoroning asosiy temir yo'l darvozasi Kogon shahri sanaladi. Shaharga 1888-yilda temir yo'l stansiyasi sifatida asos solingan. Hozirda ham Kogon O'zbekistonning asosiy temir yo'l darvozalaridan biri hisoblanadi. U respublikamizni Janubi-g'arbiy va Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan bog'lovchi temir yo'l tugunidir.

Viloyat hududidagi asosiy temir yo'l izi – Buxoro-Toshkent temir yo'lidir. Mazkur yo'l Turkmaniston chegarasigacha davom etadi. Buxoro-Toshkent temir yo'lida Kogondan tashqari, Qorako'l stansiyasi, Losha, Murg'ak, Yakkatut, Sayot, Olot, Xo'jadavlat bekatlari (razyezlari) joylashgan.

XX asr boshida, aniqrog'i 1916-yilda Kogon-Qarshi-Amudaryo (Samsonova) temir yo'li qurildi. Ushbu yo'lni qurulishi bilan Qorovulbozor va Bo'zachi bekatlari qurildi. Kogon-Qarshi-Amudaryo (Samsonova) temir yo'lidan mustaqillik yillarda Qorovulbozor neftni qayta ishslash zavodiga po'lat izlar tortildi. Bugungi kunda ushbu

yo‘Ining O‘zbekiston iqtisodiyotidagi ahamiyati benihoyat katta. Chunki, Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodida ishlab chiqarilgan neft mahsulotlari aynan shu yo‘ldan mamlakatimiz bo‘yicha tarqaladi.

O‘zbekistonning siyosiy mustaqillikka erishuvi barcha sohalar qatori temir yo‘l sohasida ham o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keldi. Ayniqsa, temir yo‘l mustaqilligini ta’minlash eng asosiy vazifa qilib qo‘yildi. Shu bois, sohada qator yangi temir yo‘l qurilishlari boshlandi. Ana shularning samarasi o‘laroq, 2001-yilda uzunligi 500 km dan ortiq bo‘lgan Uchquduq-Sultonuvays-Nukus temir yo‘li ishga tushurildi. Ushbu yo‘Ining qurilishi Buxoro viloyatining transport geografik o‘rnini biroz noqulaylashuviga sabab bo‘ldi.

Odatda, katta hududlarga ega bo‘lgan mintaqalarda, xususan ularning ichki qismlarida transport infratuzilmasini rivojlantirish muammolari dolzarb bo‘ladi. Buxoro viloyati ham bundan mustasno emas.

Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida transport tizimining yana bir muhim qismi bo‘lgan avtomobil transporti va avtomobil yo‘llari ham o‘rin tutadi. Mintaqalarda iqtisodiyotining avtomobil transportidan foydalanmaydigan birorta sohasi yo‘q. Qisqa masofalarga yuk va yo‘lovchilarni tashishda, zamonaviy transportning boshqa xillari mavjud bo‘lmagan manzilgohlarda aholi va tashkilotlarga xizmat ko‘rsatishda, ayniqsa transport uchun noqulay bo‘lgan cho‘l hududlarida avtomobil transportining ahamiyati beqiyosdir.

Buxoro hududidagi qator avtomobil yo‘llari xalqaro va davlat ahamiyatiga ega. Hozirgi kunda avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligi 4100 km dan ortiq (1-jadval). Shularning 95-100 foizi qattiq qoplamali yo‘llardir. Viloyatimiz hayotida muhim o‘rin tutgan avtomobil yo‘llari jumlasiga eng avvalo Samarqand-Buxoro, Toshkent-Nukus, Urganch- Denov, Nukus-G‘uzor yo‘llari kiradi. Mazkur yo‘llar nafaqat viloyat, balki O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida katta ahamiyat kasb etadi. Avtomobil yo‘llari uzunligi bo‘yicha viloyatlar orasida Buxoro viloyati peshqadam hisoblanadi.

1 - jadval

Buxoro viloyati avtomobil yo‘llari uzunligi

Avtomobil yo‘llari	Yo‘Ining uzunligi, km
Xalqaro ahamiyatga molik	540
Davlat ahamiyatiga molik	1155
Mahalliy ahamiyatiga molik	2406
Jami:	4101

Jadval Avtomobil yo‘llari qo‘mitasidan olindi

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin mavjud avtomobil yo'llarini xalqaro andozalarga moslash, yo'llarni saqlash va ta'mirlash, yangi barpo etilayotgan sanoat rayonlariga xalqaro magistrallar bilan bog'laydigan yo'llar qurilishi masalalariga e'tibor kuchaydi. Shu bilan birga endilikda avtomobil transportida ham xususiylashtirish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish davom etmoqda. Transport vositalari-avtobuslar, yuk va yengil mashinalarga ega bo'lgan jamoa hamda xususiy xo'jaliklar ko'paymoqda, ularning yo'lovchi va yuk tashishda salmog'i asta-sekinlik bilan o'sib bormoqda.

Viloyat avtotransportining moddiy-texnik ba`zasi mustahkamlanmoqda. Avtorey parki xorijiy mamlakatlar (Germaniya, Janubiy Koreya, Turkiya) dan keltirilgan va vatanimizda ishlab chiqarilayotgan avtobuslar, yengil mashinalar hisobiga tobora yangilanib bormoqda. Avtoxo'jaliklar, yo'l qurilishi xo'jaliklari zamonaviy texnikalar bilan ta'minlanmoqda.

O'zbekiston avtomobil transportida qo'shni uzoq xorijiy davlatlar bilan bog'lanish istiqboli ochilmoqda. Mamlakatimiz O'rta Osiyo davlatlarining barchasi bilan xalqaro ahamiyatga molik bo'lgan yirik avtomagistrallar qurishda tashabbuskor bo'lib chiqmoqda yoki bevosita qatnashmoqda. Jumladan, Buxoro-Saraxs-Mashhad-Tehron avtomobil yo'llarini qurish va qayta ta'mirlash ishlariga hissa qo'shgan holda qatnashishdan ham manfaatdor".

Buxoro (Kogon) – Samarqand – Qarshi "uchburchagida" Buxoro shahri ham o'ziga xos mavqega ega. Toshg'uzor – Boysun - Qumqo'rg'on yo'lining ishga tushirilishi Buxoro – Qarshi - Termiz "yo'lagining" shakllanishi va rivojlanishiga imkon beradi. Ayni vaqtda Buxoro – Gazli - Nukus avtomobil yo'li – Katta O'zbek traktining ham ahamiyati ortib bormoqda.

Buxoro O'zbekiston bir qator shaharlari (Toshkent, Farg'ona va b.) hamda jahondagi ko'p mamlakatlarning poytaxtlari, yirik shaharlari va sanoat markazlari bilan havo yo'llari orqali bog'langan. Respublika havo transporti-fuqaro aviatsiyasi tarixi 1920-yillardan boshlangan. 1924-yil uzunligi 450 km bo'lgan Kogon-Oqto'qay-Darg'onota-Xiva hamda Buxoro-Termiz-Dushanbe havo yo'llari ochildi.

II Jahon urushidan keyingi yillarda fuqaro aviatsiya tarixi yo'lovchilar va yuk tashish bilan birga qishloq xo'jaligi ishlarida ya'ni, dalalarga mineral o'g'itlar va zararkunanda hasharotlarga qarshi zaharli preparatlar sepishda hamda g'o'zani defoliatsiya qilish islarida keng ko'lamda foydalanildi.

Buxoroda 1963-yilda yangi aeroportlar qurildi. Buning natijasida viloyat transportida yuk va yo'lovchi tashishda havo transportining hissasi oshib bordi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin 1992-yilda "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi tashkil etildi. Respublikaning ayniqsa xorijiy mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy, turistik aloqalarini yo'lga qo'yishda mamlakatning

o‘z havo transporti muhim rol o‘ynaydi. “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi xilma-xil tipdagi havo transporti vositalariga ega. Jumladan, unda qishloq xo‘jalik ishlariga mo‘ljallangan "AN-2", mahalliy yo‘llarda qatnaydigan "AN-24", "YAK-40", xalqaro yo‘llarda qatnaydigan "IL-76", "IL-62", "IL-86", "TU-154", "A-310", Boing kabi samolyotlar bor. Vertolyot parkida esa "MI-2", "MI-8", "KA-26" kabi mashinalar bo‘lib, ulardan mamlakat muassasalari, meteorologiya, geologiya-qidiruv ishlarida keng foydalilanildi.

“O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi tarkibida 17 ta zamonavuy aerovokzal (Toshkent (2 ta), Samarqand, **Buxoro**, Nukus, Mo‘ynoq, To‘rtko‘l, Termiz, Sariosiyo, Andijon, Namangan, Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Urganch, Farg‘ona, Qarshi, shaharlarida) bor. Andijon, Buxoro, Qarshi, Navoiy, Namangan, Nukus, Samarqand, Toshkent (Janubiy), Termiz, Urganch, Farg‘ona aeroportlari xalqaro maqomga ega.

Hozirda havo transporti jami yuk va yo‘lovchi tashish hajmida salmoqli ulushga ega bo‘lmasada shoshilinch, qimmatbaho va tez ayniydigan yuklarni tashishda, yo‘lovchilarga tez va sifatli xizmat ko‘rsatishda katta rol o‘ynamoqda.

Quvur transporti tez rivojlanib borayotgan, to‘liq avtomatlashtirilgan, ko‘p sonli xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarni jalb qilishning hojati bo‘lamagan va atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan transport sohasi. Viloyatda neft hamda gaz sanoatining rivojlanishi, aholini ichimlik suvi bilan to‘la ta`minlash bo‘yicha katta ahamiyatga ega. O‘zbekistonda birinchi neft quvuri 1908-yilda ishga tushganini ko‘ramiz. O‘scha yili Chimyon neft konidan Oltiariq neftni qayta ishslash zavodiga 20 km. lik quvur tortilgan edi. Keyinchalik mamlakatda yangi-yangi neft va gaz konlarining topilishi quvur transporti rivojlanishiga asos bo‘la boshladi.

XX asrning II yarmidan boshlab Respublikada gaz sanoatining rivojlanishi gaz quvurlari geografiyasini juda kengaytirib, uning xalqaro ahamiyatini oshirib yubordi. O‘zbekistonda gaz quvurlari qurish 1958-yilda boshlangan. 1960- yillarning boshigacha viloyatda "Gazli-Kogon" gaz quvuri qurilgan. Shu bilan birga ushbu davrda mamlakatimiz hayoti uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan "Jarqoq-Buxoro-Samarqand-Toshkent" gaz quvuri ham ishga tushgan.

Keyinchalik g‘oyat qisqa muddatlarda Buxoro-Ural (1,2,3-navbatlari), O‘rta Osiyo-Markaz, Buxoro-Toshkent-Frunze (Bishkek)-Olmaota gaz quvurlari qurib foydalanishga topshirildi. Ana shu quvurlar orqali xalqimizning milliy boyligi xo‘jasizlarcha tashib ketilgan.

Mustaqillikka erishishimiz bilan ushbu boyliklarga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Endilikda respublikadagi gaz uzatish bo‘linmalari 7 magistral gaz quvuri tarmog‘iga (Buxoro-Gazli-Toshkent, 522 km; Muborak-Navoiy, 112 km; Sho‘rtan-ToshIES, 602 km; Kalif-Dushanbe, 408 km; Buxoro-Ural, 489 km; O‘rta Osiyo-

Markaz, 369 km) ega. Ularning 3 tasi Buxoro viloyatidan o‘tadi. Shuningdek, mustaqillik yillarida Buxoro (1994-yil 100 km li Ko‘kdumaloq-Qorovulbozor) viloyatida neft quvurlari ham qurildi.

Aholini, ayniqsa shahar aholisini chuchuk suv bilan ta`minlashda ham quvur transportining ahamiyati ortib bormoqda. Jumladan, 1993-yilda Buxoro va Navoiy shaharlarini toza ichimlik suvi bilan ta`minlash maqsadida Damxo‘ja – Buxoro suv quvuri ishga tushdi.

Umuman, quvur transporti nafaqat mamlakat, balki viloyatimiz iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim omil bo‘lib, u sanoat korxonalari va xo‘jaliklarni, aholi manzilgohlari va shaharlarni tabiiy gaz va chuchuk suv bilan ta`minlashda katta ahamiyatga ega. Quvur transportining rivojlantirilishi va uning xalq xo‘jaligida mavqeining oshirilishi ishlab chiqarishda mehnat unumdarligi oshishiga, mahsulot tannarxi pasayishiga, atrof-muhitning ekologik jihatdan toza bo‘lishiga olib keladi.

Xullas, O‘zbekiston, xususan Buxoro viloyat transport tizimi nafaqat milliy xo‘jalik rivojlanishida, balki mintaqaviy va xalqaro savdo iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda, mintaqaviy integratsion aloqalarni chuqurlashtirishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Buxoro viloyati transport va tashqi iqtisodiy aloqalari mintaqa va milliy iqtisodiyotda muhim o‘rin tutadi. Bu yerda zamonaviy transportning bacha turlari rivojlangan. Viloyatning tashqi iqtisodiy aloqalari ham yil sayin rivojlanib bormoqda. Ichki hududiy tarkibda Buxoro shahri va Qorovulbozor viloyat tashqi savdosida yetakchilik qiladi. Ayni paytda Vobkent, Kogon tumanlarining eksport salohiyati ancha past. Investitsiya muhitni ham Buxoro shahri va Qorovulbozorda nisbatan yaxshiroq. Kelajakda viloyatning barcha qishloq tumanlarida investitsiya muhitini yaxshilash uchun transport infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiyalardan samarali foydalanish uchun transport geografiyasini kengaytirish zarur.

Viloyat transport tarmoqlarini geografik jihatdan tahlil qilib, quyidagi xulosalar va takliflarga kelish mumkin:

➤ Buxoro viloyat transport tizimi nafaqat milliy xo‘jalikni rivojlantirishda, balki mintaqaviy va xalqaro savdo iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda, mintaqaviy integratsion aloqalarni chuqurlashtirishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

➤ Transportning rivojlanishi tabiiy resurslarni o‘zlashtirish, sanoat va agrar soha integratsiyasi chuqurlashishi hamda milliy xo‘jalikning jahon bozoriga qo‘shilishining shart - sharoitlarni yaxshilaydi.

➤ Buxoro viloyati tumanlarida turizmni rivojlantirish uchun avvalo yo‘llar tizimini yaxshillash kerak.

➤ Viloyat tumanlari orasida sezilarli darajada iqtisodiy tafovut mavjud, ushbu muammoni bartaraf etish uchunavvalo kichik shaharlarni yirik shaharlar bilan aloqasini bo‘lash kerak, buning uchun transport bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalarni hayotga tadbiq etish keljakda Buxoro viloyati shahar va tumanlarida transport va tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishiga hamda ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotning o‘sishiga olib keladi. Tumanlarda mazkur tarmoqlarning rivojlanishi esa, o‘z navbatida, Buxoro viloyati aholisining turmush darajasini yaxshilanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Аксенов И.Я. Единая транспортная система. -М.,Высшая школа 1991. 384 ст
2. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo‘g‘rofiyasi. –T., O‘qituvchi, 1994. –209 b.
3. Buxoro viloyati O‘lkashunoslik atlasi. – T., 2014. 57 b.
4. Isayev A.A. Transport geografiyasi. Uslubiy qo‘llanma. – T ., Mumtoz so‘z, 2019. – 153 b.
5. Soliyev A.S., Ahmedov E.A. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. – T .: Universitet, 2003. – 304 b.
6. Soliyev A., Qarshiboyeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. – T., Ziyo, 1999. – 348 b.
7. Soliyev A., Nazarov M., Qurbanov Sh. O‘zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. – T., Mumtoz so‘z, 2010. – 181 b.
8. www.buxstat.uz.
9. www.lex.uz
10. www.railway.uz
11. www.siat.stat.uz
12. www.uzavtoyul.uz
13. www.uzbairports.uz
14. www.uzreport.news